Raqamli O’zbekiston modeli va undagi afzalliklar

Raximboyev Musobek Komiljon o`g`li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o`qituvchisi

Mahmudov Muhammadullo

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Anotatsiya: O‘zbekiston istiqlol tufayli o‘z taraqqiyotining tamomila yangi bo‘lgan tarixiy davriga qadam qo‘ydi. Mana shu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, endilikda xalqimiz o‘zining tub manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, rivojlanish strategiyasini belgilab olish va uni mustaqil amalga oshirishdek tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan shart-sharoitlarga erishdi.Ushbu maqolada Raqamli O’zbekistonni yanada rivojlantirish ko’zda tutilgan.

Kalit so’zlar: O’zbek modeli,Strategik maqsad,Milliy davlatchilik,Prezident,Siyosiy muholifat,Mulk shakllari.

Kirish: Raqamli O’zbekiston modeli tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi Jamiyatni isloq etishning besh tamoyili Taraqqiyotning o'zbek modeli jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyusion-tadrijiy ravishda isloq etishdir

Jamiyatni isloq etishning besh tamoyili:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi.

2. Davlat - bosh isloqotchi.

3. Qonunning ustuvorligi.

4. Kuchli ijtimoiy siyosat.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli”

Dunyoviy davlat qurishda «O'zbek modeli»ning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot sohalarida namoyon bo'lishi. Dunyoviy va milliy davlatchilik tushunchalari. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurishning asosiy vazifalari. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar jahon maydoniga chiqishda ular dunyoviy davlat qurish yo'lidan borganligi bilan xarakterlanadi. Aslida 1) dunyoviy davlatchilik, 2) milliy davlatchilik va 3) islom davlatchiligi tushunchalari mavjud bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Dunyoviy davlat tushunchasi, avvalo, demokratiyaning muhim umumjahon e'tirof etgan asosiy tamoyillariga asoslanadi.

Bu tamoyillar: 1. Erkin va adolatli saylovlar. 2. Ochiq va hisobot beruvchi hukumat. 3. Inson huquqlarining ustuvorligi. 4. Hokimiyat organlarining saylanib qo'yilishi. 5. So'z, matbuot va vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi. 6. Qonun ustuvorligi. 7. Fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari mavjudligi va tengligi. 8. Tayinlash yo'li bilan shakllangan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlari oldida hisob berib turishi. 9. Ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligi. 10. Umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlarning o'tkazilishi. 11. Mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi. 12. Siyosiy muholifatning ochiq faoliyat ko'rsatishi. 13. Jamiyatda xilma-xil fikrlarning, plyuralizmning mavjudligi.

Asosiy qism: Bu asar Prezident Islom Karimov tomonidan 1992 yilda yozildi. Asarda O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos yo'li va demokratik jamiyat qurishning jahon taraqqiyoti tajribasi tahlil qilindi., bu asar 5 qism, bo'limlarni o'zida ifoda etadi. Bular: 1. O'z yo'limizning shart-sharoiti va zaminlari. 2. O'zbekiston demokratik va itimoiy adolat jamiyati. 3. Milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat. 4. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish - mustaqil O'zbekiston ichki siyosatining negizlari. 5. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari.

Bizning bosh strategik maqsadimiz - ozod va obod Vatan, erkin va farovon qayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, ko'pmulkchilikka va ular o'rtasidagi raqobatga tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo'lib, bu huquq davlat tomonidan kafolatlanadi.

O'zbek modeli»ni bugungi kunda demokratik jamiyat barpo etish muhim o'ziga xos modeli ekanini dunyoning juda ko'plab siyosatshunos yetakchi olimlari o'rganmoqda va uni tahlil qilmoqdalar. Masalan, rossiyalik tadqiqotchilar M.S.Gafarli, A.G.Kasaev, germaniyalik L.Levitin, Rossiya Fanlar Akademiyasining akademigi F.Burlaskiy uni yuksak baholashgan. Xalqimiz istiqlol yillarida erishgan yutuqlar va marralardan har qancha faxrlansak, yurtimizda mustahkam qaror topgan tinchlik-osoyishtalik, bunyodkorlik sharoiti uchun shukronalar aytsak, arziydi. Zero, o’tgan asrning 90-yillarida sobiq sho’ro saltanatidan qolgan ayanchli meros - biryoqlama rivojlangan, faqat xom ashyo yetkazib berish-u, paxta yakkahokimligiga asoslangan iqtisodiyotimiz naqadar nochor ahvolga tushib qolganini, qashshoqlik va bedodlikdan xalqimizning sabr-kosasi to’lib, yurtimiz jar yokasiga, portlash holatiga yetib borganini aslo unutib bo’lmaydi. Ana shunday taraqqiyot yo’lining chekkasida qolgan mamlakatni, tushkunlik va qashshoqlik natijasidan kelajakdan umidini uzgan xalqni o’ta murakkab vaziyatdan izchil va barqaror rivojlanishyo’liga olib chiqishning o’zi bo’lgani yo’q albatta.Ana shunday murakkab va qaltis sharoitda yurtning boshiga, uzoq va yaqin tariximizda bo’lgani kabi, irodasi sust va jur’atsiz bir rahbar kelib qolganida nimalar bo’lishi mumkinligini tasavvur qilishning o’zi dahshatli. Unday holatda xalqning kuni, davlatning taqdiri qanday kechar edi. Toley baland xalq ekanmizki, Yaratgan peshonamizga uzoqni ko’ra biladigan, mard va jasoratli, buyuk ishlarga qodir Yo’lboshchini ato etdi!

Xulosa: Mustaqil Vatanimiz o’zining qisqa, lekin mazmun-mohiyati, tarixiy vokealarga boyligi bilan asrlarga teng yangi tarixi davomida o’z vaqtida tanlangan, har tomonlama o’zini oqlagan, to’g’riligini hayotning o’zi isbotlagan, jahonda taraqqiyotning «o’zbek modeli» deb e’tirof etilgan hayotbaxsh rivojlanish yo’lidan o’zining buyuk kelajagi sari qatiyat bilan bormoqda. Bugun bu modelning o’ziga xos va o’ziga mos jihatlarini, berayotgan samaralari ko’plab mamlakatlarda o’rganilmoqda, xalqaro ekspertlar, olimlar va siyosatchilarda katta qiziqish uyg’otmoqda. Undan ko’plab davlatlar ibrat va andoza olmoqda.Prezidentimiz

Islom Karimov rahnamoligida xalqimiz tanlagan yo'l -iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi, siyosatdan ustunligiga asoslangan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohatchilik vazifasini o'z zimmasiga olishi, jamiyat hayotida qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni ko'zda tutadigan mashhur besh tamoyil negizida ishlab chiqilgan taraqqiyotning «o'zbek modeli» samarasida milliy davlatchiligimizning mustahkam tamal toshi qo'yildi, mamlakatimiz izchil va barqaror rivojlanish yo'liga o'tdiBu yo'lning hayotbaxsh samaralari - ozod va obod Vatanimizning go'zal va betakror qiyofasi, shahru qishloqlarimiz jamoli, xalkimiz farovonligida asrlar davomida namoyon bo'laveradi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., «O‘zbekiston», 2011.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li– T.: O‘zbekiston, 1993.

3. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T., «O‘zbekiston», 1995.

4. I.A.Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2010.

5. Islom Karimov, O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O‘zbekiston". 2011.

6. N.To‘xliev Taraqqiètning o‘zbek modeli. T.:2012.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012 yil Vatanimiz taraqqiètini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi» mavzusidagi ma'ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.-T.: «O`qituvchi» NMIU, 2012.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiètini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodièt. – 2011